

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Н.Н.Бобоҷонов, Г.Г.Козлова**

8 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'shma ta'sir qilish usuli yordamida harakatni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini yaxshilash ..... 111

**D.T.Abduraimov**

Talabalar hayoti sifatini yaxshilashda atletik gimnastika vositalaridan foydalanishning samaradorligi..... 116

**F.M.Mamadova**

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish mexanizimi ..... 121

**M.M.Yuldashev**

Ayollar organizmini jismoniy mashqlarga reaksiya qilishida hududiy omillarning ahamiyati ..... 125

**N.J.Madaminova**

Maktabgacha ta'llimda ingliz tilini o'rganish uchun geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: samaradorlik va natijalar tahlili ..... 129

**S.M.Sidikov**

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini nazorat qilish modernizatsiya..... 133

**S.B.Erkinova**

Oliy ta'llim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kognitiv faoliyatini tuzilishi va turlari .... 139

---

**IQTISODIYOT****M.R.Dadashzade**

Administration of the production areas based on innovative technology..... 143

---

**FALSAFA****I.M.Arzimatova**

O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlari va rahbar kadrlar faoliyati..... 148

**F.A.Yuldashev**

Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaat kategoriyasining namoyon bo'lishi (ijtimoiy-falsafiy tahlil)..... 153

**Sh.Ismatov**

Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyat barpo etishning nazariy asoslari ..... 158

**B.B.Asqarov**

Dizayn fikrplashda empatiya bosqichining pedagogikadagi roli ..... 161

**I.A.Asatulloev**

Alfred adlerning qalb konsepsiyasida inson barkamolligi omillari..... 164

**O.Ortiqov**

Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar)..... 172

**A.M.Nurmuxammadjonov**

Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yoshlар musiqiy tafakkurini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalari ..... 175

**A.A.Sayitxonov**

Ilmiy qadriyatlarning inson axloqiy va ma'naviy yuksalishiga ta'siri..... 188

---

**SIYOSAT****A.Leyla**

Xitoy Xalq Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlari ..... 191

**S.N.Abdullayev**

Huquqiy ong masalasiga falsafiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari ..... 196

---

**ТАРИХ****Sh.M.Abdusatorov**

Jizzax vohasi an'anaviy taomlarining gastroturizmni rivojlantirish bosqichidagi o'rni va ahamiyati (Forish tumani misolida)..... 199



## DIZAYN FIKRLASHDA EMPATIYA BOSQICHINING PEDAGOGIKADAGI ROLI

## РОЛЬ ЭМПАТИИ НА ЭТАПЕ ДИЗАЙН-МЫШЛЕНИЯ В ПЕДАГОГИКЕ

## THE ROLE OF THE EMPATHY STAGE IN DESIGN THINKING IN PEDAGOGY

Asqarov Behzod Baxtiyor o'g'li

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

*Annotatsiya*

*Ushbu maqolada dizayn fikrlash, uning o'ziga xos jihatlari va unda empatiya bosqichining pedagogikadagi roli haqida fikr yuritilgan. Dizayn fikrlashning empatiya bosqichi o'quvchilarning ehtiyojlarini chuqur tushunish orqali ularning ta'limga bo'lgan munosabatini o'zgartirish va dars jarayonini optimallashtirish masalalari tahlil qilingan.*

*Annotatsiya*

В данной статье рассматривается дизайн-мышление, его особенности, а также роль эмпатии в педагогике. На эмпатическом этапе дизайн-мышления анализируются вопросы изменения отношения к образованию и оптимизации процесса обучения через глубокое понимание потребностей учащихся.

*Abstract*

*This article discusses design thinking, its specific aspects, and the role of empathy in pedagogy. The empathy stage of design thinking analyzed the issues of changing their attitude to education and optimizing the learning process through a deep understanding of students' needs.*

**Kalit so'zlar:** design thinking, empatiya bosqichi, ta'limg-tarbiya, individual yondashuv, innovatsion va kreativ fikrlash

**Ключевые слова:** Дизайн-мышление, этап эмпатии, образование и воспитание, индивидуальный подход, инновационное и креативное мышление

**Key words:** Design thinking, empathy stage, education and upbringing, individual approach, innovative and creative thinking.

## KIRISH

Dunyodagi ilg'or xorijiy oliy ta'limg markazlaridagi tadqiqotlar xulosalariga ko'ra, zamonaviy o'qtishning turli usullari sohalar va kasblarga qarab, samarali yoki samarasiz ekanligi e'tirof etilayotgan bo'lsa-da, rivojlangan xorijiy davlatlarda olib borilayotgan izlanishlar tahlili ta'limg samaradorligini oshirishda, zamonaviy vositalaridan foydalanish orqali o'qitiladigan darslarni takomillashtirish zamon talabi ekanligiga dalolat beradi.

Yurtimizda ta'limg tizimini tubdan takomillashtirish, ta'limg muassasalarining moddiy-texnik bazasi va metodik ta'minotini kuchaytirish, o'quvchilarning sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida olib borilayotgan islohotlar jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jozibadorligini oshirib, ta'limg oluvchilarning unga bo'lgan qiziqishi va e'tiborini yanada kuchaytirishga zamin yaratmoqda.

Dizayn fikrlash pedagogikada o'qituvchilarga va o'quvchilarga muammolarni hal qilish jarayonida kreativ yondashuvni qo'llash imkonini beradi. Uning eng muhim bosqichlaridan biri bu empatiya bosqichi bo'lib, unda o'quvchi yoki talaba ehtiyojlarini chuqur tushunish orqali o'quv jarayonida individual yondashuvlar shakllantiriladi. Dizayn fikrlash yondashuvi innovatsion va kreativ muammolarni hal qilish jarayoni bo'lib, dastlab biznes va dizayn sohalarida rivojlangan. Biroq, so'nggi yillarda bu yondashuv ta'limg jarayoniga ham keng tatbiq etila boshlandi. Dizayn fikrlash ta'limga o'qituvchilar va o'quvchilarga ijodiy fikrlash orqali o'zaro hamkorlik qilish, muammolarni turli nuqtai nazarlardan ko'rib chiqish imkonini beradi. Empatiya bosqichi esa jarayonning boshlang'ich nuqtasi bo'lib, unda asosiy maqsad – o'quvchilarning ehtiyojlarini, his-tuyg'ularini va qiziqishlarini chuqur tushunishdir. Bu bosqich o'quvchilarning o'zlarining o'qish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganini aniqlash va shu asosda yechimlar topishga qaratilgan. [Kuzmina, E. P. 2022, b-2]

MDH davlatlarida, xususan O'zbekiston, Qozog'iston va Rossiyada ta'limg tizimi o'quvchilar va talabalar ehtiyojlariga moslashishga intilmoqda. Empatiya bosqichi bu jarayonni samarali o'tkazishga

yordam beradigan vosita sifatida ko'rilmoxda. Ushbu maqolada MDH davlatlari ta'lim tizimida dizayn fikrlashning empatiya bosqichi qanday qo'llanilayotganiga alohida e'tibor qaratiladi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Ushbu tadqiqotda adabiyotlar tahlili, intervyu, va amaliy kuzatish kabi metodlardan foydalanilgan. Dizayn fikrlashning empatiya bosqichi bo'yicha mavjud tadqiqotlar va maqolalar o'rganilgan, shuningdek, Qozog'iston, Rossiya va O'zbekiston maktab va universitetlarida amalga oshirilgan amaliyotlar tahlil qilingan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Empatiya bosqichi bo'yicha nashr qilingan ilmiy maqolalar va kitoblar o'rganilib, asosiy yondashuvlar va natijalar tizimlashtirilgan.

Intervyu: O'qituvchilar va ta'lim mutaxassislari bilan o'tkazilgan suhbatlarda, ular empatiya bosqichining talabalarning ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishdagi roli haqida fikr bildirganlar.

Kuzatish: MDH davlatlarida amaliyotda dizayn fikrlashning qo'llanilishi sinchkovlik bilan kuzatilib, o'quvchilarning qiziqishlari va dars jarayonida faol ishtirok etishi baholangan.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda innovatsiya barcha sohalarda kabi, mакtab boshqaruvi uchun muhim sanaladi. Sababi, davlat xizmatchisi, ulkan kompaniya menejeri yoki endi ish boshlayotgan tadbirkor kabi maktab direktoridan o'z ishida yangilik kutishadi. Aynan shu sababdan ham bizga dizayn fikrlash zarur. Dizayn fikrlash (ing. design thinking) – insonlar (iste'molchilar, foydalanuvchilar, mijozlar) mavjud muammolari yechimiga yo'naltirilgan qarorlar, mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish usulidir. Insonga yo'naltirilgan bu usulda muammoni yechishga nostandard yondashish insonlarni tushunishdan boshlanib, ularning individual ehtiyojlariga mos tarzda ishlab chiqilgan innovatsion takliflar bilan nihoyasiga yetadi.

Dizayn fikrlash g'oyasi, ilk bor, 1969-yilda amerikalik olim, boshqaruvi qarorlarini qabul qilishning zamонави nazариysi asoschilaridan biri bo'lган Gerbert Saymon tomonidan «Sun'iy narsalar haqidagi fanlar» («The Sciences of the Artificial») [1] kitobida ilgari surilgan. Dizayn fikrlash orqali muammolarni hal qilishda intuitsiya, qayg'urish va his qilish qobiliyati kabi insoniy xislatlardan foydalaniladi, tadqiqot va amalga oshirilayotgan ish tashkilot, rahbar yoki ma'muriyatçilikning manfaatlariga emas, inson manfaatlariga bo'ysundiriladi. Dizayn fikrlashning bosh maqsadi – mavjud qoliplar va masalani hal qilishning odatdagи usullarining chegarasidan tashqarisiga chiqish, dunyoga foydalanuvchilar ko'zi bilan qarashdan iborat. Original variantda bu thinking outside the box – so'zmaso'z «qutidan tashqarida fikrlash» deb ataladi.

Dizayn fikrlash takrorlanuvchi jarayon ekanligini tushunish juda muhim: g'oya ilgari suriladi, darhol sinovdan o'tkaziladi, natija olinadi va olingan tajribadan yanada yaxshi yechim izlash uchun foydalaniladi. Yangi g'oyalarni yaratish vaqtida hech qanday cheklolvar bo'lmasisligi lozim, bu kabi yondashuv innovatsion fikrlash yo'lidagi har qanday to'siq va qoidalarni bartaraf etadi, bu esa ishtirokchilarga tasavvurning butun kuchini ishga solish, nostandard fikrlar o'ylab topish imkonini beradi.

Empatiya – bu o'zini boshqa insonning o'rниga qo'yib ko'ra olish va uning hissiyotlarini, istaklarini, g'oya va xatti-harakatlarini tushunish, birga qayg'urish qobiliyati. Empatiya insonni nima tashvishga solayotgani va unga nima kerakligini tushunish imkonini beradi. Dizayner kabi fikrlaydigan rahbarlar o'zlarini foydalanuvchi, iste'molchining o'rниga qo'yib ko'radi, ularni emotsiunal va ratsional ehtiyojlarini va istaklarini chuqr anglaydi. Bu bosqichning vazifasi – insonlar nima qilishlari, nima uchun buni qilishlari, ular dunyoni qanday ko'rishlari, ularning qanday emotsiunal va moddiy qadriyatlarga ega ekanliklarini aniqlashdir.

Tadqiqot natijalari MDH davlatlarida dizayn fikrlashning empatiya bosqichi o'quvchilarning ehtiyojlarini tushunish va ta'lim jarayonini takomillashtirishda samarali vosita ekanini ko'rsatdi.

Empatiya bosqichining samarası: Ushbu bosqich, o'qituvchilar o'quvchilarni yaxshiroq tushunishiga yordam berib, ta'lim jarayoniga individual yondashuvni ta'minlaydi. Ayniqsa, O'zbekistonda bu yondashuv dars sifatini oshirishda muhim vosita bo'lган.[5]

Innovatsion pedagogik yondashuvlar: Empatiya bosqichi nafaqat talabalarning ehtiyojlarini inobatga olishga imkon beradi, balki ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va muammolarni o'zgacha yechimlar orqali hal qilishga yordam beradi.

Shunga qaramay, MDH davlatlarida dizayn fikrlashni keng joriy qilish uchun hali ko'plab qadamlar qo'yilishi kerak. Aksariyat o'qituvchilar ushbu yondashuv haqida to'liq bilimga ega emaslar, bu esa empatiya bosqichining to'laqonli tatbiq etilishini qiyinlashtiradi.

## FALSAFA

Natijalar shuni ko'rsatadiki, MDH davlatlarida dizayn fikrlashning empatiya bosqichi ta'lif jarayonini o'zgartirishda muhim rol o'yynamoqda. Ushbu davlatlardagi maktab va universitetlar dizayn fikrlash usullarini qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish, ularning ehtiyojlarini tushunish va o'zlariga mos ta'lif jarayonini shakllantirishni maqsad qilganlar.

1. Qozog'iston: Maktablar dizayn fikrlash jarayonida empatiya bosqichidan foydalanib, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga erishmoqda. O'qituvchilar darslar davomida o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash va shu qiziqishlar asosida darslarni tashkil qilish orqali ularning faolligini oshirgan. [Abisheva, K. T. 2020, b-4]

2. Rossiya: Universitetlarda dizayn fikrlash empatiya bosqichidan foydalanish talabalarning darsga qiziqishini oshirishda va ularni chuqurroq o'ylashga undashda muvaffaqiyatlari qo'llanilgan. Talabalar muammolarni tahlii qilish va yechimlar topish jarayonida o'z ehtiyojlarini va atrofdagilar ehtiyojlarini tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishgan. [Gorshkova, N. N., & Rudneva, A. S. 2021, b-8]

3. O'zbekiston: O'zbekiston maktablarida empatiya yondashuvi o'quvchilarning ta'lif jarayoniga bo'lgan munosabatini sezilarli darajada o'zgartirgan. O'qituvchilar o'quvchilarni tinglash va ularning qiyinchiliklariga yechim topishga katta e'tibor qaratmoqda. Natijada o'quvchilar ta'lif jarayoniga ko'proq jalb qilinmoqda va darslarga faolligi ortgan. [Abdullayeva, G. S. 2019, b-1]

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Dizayn fikrlashning empatiya bosqichi o'quvchilarning ehtiyojlarini chuqur tushunish orqali ularning ta'limga bo'lgan munosabatini o'zgartirish va dars jarayonini optimallashtirish uchun zarur vosita hisoblanadi. MDH davlatlarida, xususan O'zbekiston, Rossiya va Qozog'istonda bu bosqichning qo'llanilishi ta'lif sifatini sezilarli darajada oshirgan, lekin uni yanada kengroq miyosda tatbiq etish uchun qo'shimcha tadqiqotlar va treninglar zarur.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gorshkova, N. N., & Rudneva, A. S. (2021). "Design thinking in the education system of the Russian federation: problems and prospects." Pedagogical Sciences Journal.
2. Abisheva, K. T. (2020). "Application of design thinking in the educational process of Kazakhstan." Kazakh national university journal of education.
3. Abdullayeva, G. S. (2019). "Dizayn fikrlashning empatiya bosqichi va uning O'zbekiston ta'limida tatbiqi." Ta'lif va innovatsiya jurnali.
4. Kuzmina, E. P. (2022). "Innovative approaches in pedagogy: design thinking for effective problem-solving." Russian Educational Review.
5. Shukurov, B. U. (2021). "empathy in design thinking: a tool for modern education in Uzbekistan." International journal of educational innovations.